

Mingtepada arxeologik tadqiqotlar

O'zR FA Milliy arxeologiya markazi xodimlari Andijon viloyati Marxamat tumanidagi Mingtepa arxeologik yodgorligida arxeologik tadqiqot ishlarni olib bormoqdalar.



Yodgorlik hozirgi Marhamat shahrining sharqiy chegarasiga tutashib ketgan. Mahalliy aholi tepaliklar ko'p bo'lgani uchun uni Mingtepa deb ataydi. Bu shahar xarobasi Farg'ona vodiysining antik davri yodgorliklari ichida eng yirigidir. Shahar uch qismdan iborat: ark, ichki va tashqi shahar. Ichki shahar maydoni 41 gektar, yodgorlik tashqi shahar bilan qo'shib hisoblaganda 270 gektardan ziyod.



Ma'lumki, Xitoy yilnomalari qadimgi Farg'ona podsholigi Davanda 70 dan ortiq katta va kichik shaharlar bo'lgan deb xabar beradilar. Manbalarda ulardan uchtasining nomlanishi aytib o'tiladi: Ershi, Yuchen va Guyshan. Mingtepa shahar xarobasini dastlab A.N. Bernshtam podsholik poytaxti Ershi bo'lishi kerak, deb fikr bildirgan. Xitoy manbasiga asosan, Ershi - Mingtepa birinchidan, vodiy sharqiy tomonida joylashgan; ikkinchidan, Mingtepada xitoylar bostirib kirgan paytdagi (mil. avv. II asr) qalin madaniy qatlamlar va ular qamal qilgan devorga juda o'xshaydigan mudofaa inshootlari (ichki va tashqi devorlar) mavjud; uchinchidan, antik davrning Mingtepachalik ulug'vor va katta yodgorlik vodiya hozircha topilgani yo'q.

Mingtepa bizni fikrimizcha "katta shahar" (Xitoychada "dao chen") tipidagi shaharlar qatoriga kiradi. Xitoy manbalari xabaricha Davanda ikki qator himoyalangan shaharlar bo'lgan. Hozirda olib borilgan arxeologik natijalar Mingtepani ana shunday shaharlar qatoriga kiritishga asos bo'ladi. Ta'kid joiki, birorta Xitoy manbasida boshqa birorta davlatni poytaxti degan termin uchramaydi. Xitoyliklar Ginshi termini bilan o'z davlatlari poytaxtlarinigina tushinganlar. Boshqa davlatlar poytaxtlarini du ya'ni rezidentsiya deb ataydilar.

Shahar rejasi samodan qaraganda parallelogramm ko'rinishga ega, kishini ikki qator mahobatli mudofaa inshootlari va ulardagi burjlar hayratga soladi. O'tgan asrning 50-yillarda olingan rejasida ark, ichki va tashqi shahar aniq ko'rinadi, keyincha ularni ko'plari buzib yuborilgan. Ichki shaharga kirish uch yoki to'rt tomondagi darvozalardan bo'lgan, asosiy darvoza esa g'arbiy mudofaa devorining o'rta, ya'ni 10-11 burjlar orasidagi qismida joylashgan.





2021-yilgi ilmiy qidiruv ishlari yodgorlikning g'arbiy darvozasi, deb taxmin qilingan qismida, mudofaa devori va kuzatuv minoralari o'lchamlariga aniqlik kiritish va ularni kelgusida ustini yomg'ir va qordan asrash uchun yopib muzeyga aylantirish maqsadida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, yodgorlik tashqi shahar qismida, ya'ni g'arbiy devor tashqarisidagi tashqi devorning ichki qismlarida kuzatuv shurflari qazilmoqda. Asosiy maqsad ko'hna shaharning stratigrafiyasi, mudofaa tizimi, xunarmandchiligi, san'ati to'g'risida yangi ma'lumotlar qo'lga kiritishdan iborat.